

**MAVZU: OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL
IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI
PEDAGOGIK TAHLILI.**

Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich
Osiyo Xalqaro Universiteti
"Umumtexnika" kafedrası dotsenti.

Annotatsiya: Ta'lim tizimida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati tushunchalarining didaktik - pedagogik va metodik jihatlarini tahlil etilganligini o'rganish natijasida tadqiqot to'liq muammo sifatida tahlil etilmaganligi bizning talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning raqamli didaktik ta'minotini yanada asoslagan holda axborotlarni qo'llay olishga o'rgatishdir.

Kalit so'zlar: Individual, didaktik, innovatsion, strukturaviy, resurs, motivatsion, komponent.

**ТЕМА: ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ
КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В РАБОТЕ С ИНФОРМАЦИЕЙ НА
УРОКАХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.**

Джурсаев Миржалол Геронович
Доцент кафедры "Общетеңика "
Азиатского международного университета.
jorayev159@mail.ru

Аннотация: В научных исследованиях, проводимых в системе образования, анализируются дидактико - педагогические и методические аспекты понятий самостоятельной творческой деятельности учащихся, в результате чего исследование не анализируется как полноценная проблема, а учит применять информацию в дальнейшем обосновании цифрового дидактического обеспечения развития самостоятельной творческой деятельности наших учащихся.

Ключевые слова: Индивидуальный, дидактический, инновационный, структурный, ресурсный, мотивационный, компонентный.

**TOPIC: PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF
COMPETENCY OF STUDENTS ' WORK WITH INFORMATION IN THEIR
CLASSES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.**

Djurayev Mirjalol Qahramanovich
Associate professor of the Department
of "Department of Allenics",
International University of Asia
jorayev159@mail.ru

Abstract In scientific research carried out in the educational system, as a result of studying the analysis of the didactic - pedagogical and methodological aspects of the concepts of independent creative activity of students, the fact that the study was not analyzed as a complete problem is to teach us to be able to apply information, further substantiating the digital didactic provision of the development of independent.

Key words: *Individual, didactic, innovative, structural, resource, motivational, component.*

Respublikamizda jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kompetent kadrlar tayyorlash zaruriyati vujudga keldi. Oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlarini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. O'z vaqtida va to'g'ri shakllantirilgan ijodiy faoliyat talabalarning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi shartlardan biridir. Shuning uchun ham texnika fanlari ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini raqamli ta'lim muhitida rivojlantirish pedagogik asoslarini takomillashtirish, pedagogik jarayonlarni rivojlantirish, "O'qituvchi-talaba, talaba-talaba ta'lim vositasi o'quv muhitini shakllantirish" texnika fanlari ta'limi samaradorligini oshirishning hozirgacha yetarli darajada foydalanilmay kelayotgan imkoniyatlaridan biridir. Individuallik har bir talabaning qobiliyatini ochib beradi va turli darajadagi bilimlar uchun topshiriqlarni moslashtiradi, tabaqalashgan yondashuv talabaning o'zlashtirish darajasi va fikrlash qobiliyatini hisobga olgan holda tashkil etiladigan tamoyil, mustaqil izlanish tamoyilida talaba, o'qituvchi va o'quv jarayonida raqamli didaktik ta'minotning o'zaro ta'sirini anglatadi, tadqiqotchilik tamoyili yangi imkoniyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi, bu talabalarga raqamli ta'lim muhitida yanada moslashuvchan bo'lishga imkon beradi. Raqamli o'quv muhitini joriy etishning didaktik talablari zamonaviy kasbiy bilimlarga asoslangan innovatsion uslubiy yondashuvlardan foydalanishni va quyidagi yondashuvlarning ustuvorligini o'z ichiga oladi:

Tizimli-strukturaviy yondashuv – asosida texnika fanlarining predmeti bo'yicha bilimlarning umumiy o'zlashtirishi tahlil qilinadi. Mustaqil ijodiy faoliyatni

tashkil etish orqali fanning muammoli jihatlarini tahlil etib izlanishga yo'llaydigan va nazariyalar tuzilishiga muvofiq tasniflash bilan bog'liq yondashuv.

Umumlashtirilgan yondashuvlar o'quv jarayonida talaba o'zini o'zi tashkil etishini va mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'zaro muloqotli yondashuv - bu o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatini ifodalab, unda talabaning shaxsiy fazilatlari xarakteri hisobga olinadi va uning tajribasi tahlil qilinadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli va samarali munosabatlar yaratiladi. O'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga bog'lash izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Olgan bilimlarini notanish vaziyatlarda ham qo'llay olish talaba yangi ijodiy fikrlashlarni o'z ichiga oladi, ularni hal qilish jarayonida talaba nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotda amaliy muammolarni hal qilishga ham tadbiriq eta oladi.

Ta'limda raqamli didaktik ta'minotdan foydalanish talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirib, ularni amaliyotda qo'llash, shuningdek, o'zining muhandislik faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishish uchun ijodiy kreativ-motivasion faoliyatdan foydalanishdan iborat bo'lgan qobiliyatlarini takomillashtirishga samarali ta'sir o'tkazadi. Didaktik ta'minot talabalarning izlanuvchanlik, tadqiqotchilik startab loyihalar yaratishiga rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ta'limning shunday vositasiki, uni o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'li bilan: o'qish-o'rganishga ishtiyoq yanada ortadi, dars jarayonida hosil qilingan motivlarning davom etishi ta'minlanadi; talabalarning bilmaslikdan bilishga, malaka doirasining kengaytirishga olib keladi; o'rganilayotgan mustaqil topshiriqlar ustida talabalarning o'z faoliyatini mustaqil davom ettirishiga zamin tayyorlaydi.


Mavzular, muammoli masalalar va topshiriqlar berish orqali talabalarning faolligini oshirish, ijodiy izlanish qobiliyatini, rivojlantirish ta'lim samaradorligini yuqori bo'lishiga erishish mumkinligiga ishonch hosil qildik. Ta'lim olish muttasil tarzda zamon talablariga moslashib, fan-texnika yutuqlariga hamohang ravishda takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. XXI asrdagi ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri- oliy ta'limdagi talabalarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga bo'lgan talab, DTSlari va dasturlarining takomillashtirilishi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim tizimi mazmuniga singdirilishi, uning ta'lim natijalariga erishish mustaqil ijodiy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish lozimligi, talabalarning mustaqil ijodiy faoiyatini rivojlantirish uchun mustaqil soatlar ajratish va raqamli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati tug'ildi. Hozirgi kunda ilmiy texnik taraqqiyotning innovatsion rivojlanishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak muhandislarning zamonaviy sharoitlarga tez moslashishi hamda o'quv-bilish motivlarini egallashlariga intilishini talab etadi. Bu esa talabalarning mustaqil izlanishga, kasbiy muammolarni mustaqil yechish, unga ijodiy yondashishga va web dasturlarini o'rgatish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham, bugungi

kunda ijodkor, izlanuvchan fikrlovchi muhandislarni tayyorlash jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy muammo va vazifalaridan bo'lib, bunda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishini rivojlanayotgan sharoitimiz taqozo etmoqda. Davlat ta'lim standartlarida oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot vazifalarini amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Talabalarda tayanch, umumkasbiy va maxsus-kasbiy ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'lim mazmuni, o'quv reja, fan dasturlari, ta'lim shakli, metod, vositalari, elektron axborot ta'lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar va darsliklar, laboratoriya jihozlari, virtual laboratoriyalar ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanish asosida aniqlanadi. Yetuk, malakali kadrlarni mustaqil reja asosida o'z ustida ishlashini, kasbiy va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini izchil rivojlantirib borishi zarur ekanligini ko'rsatadi natijada kompetent kadr bo'lib yetishishni ta'minlashga erishiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, bizgacha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida ijodkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi.

“ **Ijodiy faoliyat** - bu yangi g'oya va yechimlarni pedagogik hamkorlikda amalga oshirish va ommalashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot faoliyati bo'lib, tanlab olingan g'oyalarni axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida sifat jihatidan yangi elementlarga, tashkil etuvchi omillarga to'liq pedagogik tizim sifatida qabul qilish va amalda sinab ko'rish va natijalarni taqqoslash, yechimlardagi nomutanosiblik va ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyat” ekanligi pedagogik va didaktik jihatdan asoslab berildi

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatining omillari quyidagilar.



1-rasm. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish omillar

Oliy ta'lim didaktikasi o'qitish tamoyillarini asoslashga turlicha yondashuvlar mavjud ular quyidagilar:

talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil o'quv jarayonini tashkil etilishini ilmiy ishlarga yaqinlashtirish;

mustaqil o'qish-bilish faoliyatida talabalarning yuqori faolligi intiluvchanligi, izlanuvchanligi, tadqiqotchilikni ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ularning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishlari tanlagan kasblarini puxta o'rganishiga yo'nalganligi, mustaqil fikrlashlari, faol bo'lishlari hamda dunyoqarashlari shakllanganligi va o'zini o'zi tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Talaba faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, bizning fikrimizcha kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish hamda o'zini-o'zi takomillashtirish eng muhimi mustaqilligini oshirishdir. Xulosa qilib aytganda Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish mazmuni, ijodiy faoliyat turlari, faoliyat tushunchasi, ijodiy faoliyatning mohiyati tahlili, mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash samaradorligi omillariga urg'u berilgan holda mavzuni metodik tomondan yoritishni talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. B.X.Shaymatov, B.S.Abdullaeva, M.Q.Jo'raev, "Elektr mashinalari", Buxoro: BMTI, 2022 y.-209 b.
2. M.Q.Jo'rayev, F.J.Xudoynazarov "Elektr mashinalari" fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari Maqola. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190
3. Jo'rayev M. Q. "Oliy ta'lim muassasalarining elektr energetika yo'nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o'qitish tahlili". Toshkent 2021 1-son 18 bet
4. Jo'rayev M. Q. "Elektr yuritmalari tezligini rostdash usullari" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet
5. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jo'rayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K. International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p
6. Jo'rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). "Elektr mashinalari" fani Taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet
7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich "Software analysis of electric machine science" ISSN:2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143P a g
8. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich "ELEKTR ENERGIYASINI EKSPLUATATSIYA QILISHDA TRANSFORMATORLARNING AHAMIYATI" ["PEDAGOGS" international research journal](https://scientific-jl.com) ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
9. Жўраев М.Қ. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo'rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-

- 7137Vol.12,Issue09,September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journal<https://www.indianjournals.com>
11. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fanini o'qitish didaktik takomillashtirish jihatlari" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
 12. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
 13. Jorayev Mirjalal Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291
 - 14.Джураев Мирджалал Кахрамонович, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении <http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012
 - 15.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich,Jafarov Sobir Talab o'g'li, Nizomov Nozimjon Zafar O'g'li, Kamolov Kamol Malik o'g'li "Qadoqlash sexidagi qo'llanilgan elektr yuritmani boshqarish blokini takomillashtirish orqali maxsulot namligini mo'tadil saqlash" <https://wordlyknowledge.uz/> ISSN : 2181-4341
 - 16.Жўпаев М.Қ., Software Analysis of Electric Machine Science, Research Jet Journal of Analysis and Invertions IF-7.6, <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/414> ISSN 2776-0960
 17. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li "Methodology of teaching experimental work, organization of independent work in technical higher education institutions <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/192>
 - 18.Jo'rayev, M. Q., Rashidov, H. H., & Murodov, A. O. (2023). Texnika oliy ta'lim muassalarida fanlarning amaliy ko'nikmalarni oshirishning qiyosiy tahlillari. Innovative development ineducational activities, 2(21), 4–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10138064>
 - 19.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Po'latov Bexruz Zafarovich, Ravshanov Abbas Yashin o'g'li,Rashidov Hamrozbek Hayotovich International conference pedagogical reforms and their solutions VOLUME1, ISSUE2, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/860>
 - 20.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich. (2025). Elektr mashinalari va yuritmalari" fanini o'qitishdagi innovat-siyalar va ilg'or xorijiy tajribalarning pedagogik tahlili. Journal of new century innovations, 79(2), 199-203. ISSN: 2181-368X <https://scientific-jl.com/new/article/view/23565>
 - 21.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich. (2025). Oliy ta'lim tizimida darslarida talabalarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning

pedagogik tahlili. Journal of new century innovations, 79(2), 204-208. ISSN: 2181-368X <https://scientific-jl.com/new/article/view/23566>

22.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich. (2025). Oliy ta'lim tizimida axborotlar va ularning manbalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik tahlili. Journal of new century innovations, 79(2), 209-213. ISSN: 2181-368X <https://scientific-jl.com/new/article/view/23567>

23.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Rashidov Hamrozbek Hayotovich "Elektrotexnika va elektronika" fanini o'qitisha zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlili. ISSN 2181-4341. VOLUME 8, ISSUE 2, MARCH, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1312>